
"Soliqchi - ko'makchi" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Farg'ona shaxar davlat soliq inspeksiyasi boshlig'ining HISOBOTI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida kelgusi 2023 yilda "Soliqchi - ko'makchi" tamoyili asosida tadbirkorlar uchun xizmatlar kengaytirilishi, tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta litsenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilinishi, 115 tasi bo'yicha esa tartib-qoidalar soddalashtirilishi aytib o'tildi.

Turizm, transport va umumiy ovqatlanish sohalariga berilgan imtiyozlar kelgusi yil yakunigacha uzaytirilishi, shuningdek 20 mingta tadbirkorning 400 milliard so'mlik yer va mol-mulk solig'ini to'lash muddatini yana bir yilga uzaytirish taklif qilindi.

Albatta, berilayotgan soliq imtiyozlari tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, sohani rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida "Soliqchi-ko'makchi" tamoyili asosida Farg'ona shaxar davlat soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tmoqchiman.

Ayni paytda muntazam ravishda tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o'rganilib ijobiy hal etish choralari ko'rilmogda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan qator yo'nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Xususan, 2022 yil dekabr oyi davomida Farg'ona shaxar DSI tomonidan 797 ta tadbirkorlik sub'ektlarini qiynayotgan muammolari o'rganildi.

Mazkur jarayon davomida ko'maklashish zarur bo'lgan 797 ta tadbirkorlik sub'ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo'llash tartibini tushuntirish, ortiqcha QQS to'lovlarini qaytarish, 196 ta korxonaga "E-Ijara" Dasturi orqali ijara shartnomasini tuzish va soliq organlariga bog'liq boshqa masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko'rsatildi.

2022 yil davomida 10 marotaba shu jumladan 1 marotaba "O'zbekiston-24" telekanali, 9 marotaba "Farg'ona telekanali" orqali, 6 marotaba ro'znomalarda, bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar orqali chiqilib, soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligidagi o'zgarish va qo'shimchalar targ'ibot qilindi, joylarda tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokida seminarlar o'tkazildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlashga, soliq qonunchiligiga oid zarur yordamlarni ko'rsatishga hamisha tayyormiz. Soliq tizimiga oid qo'shimcha savollar bo'lsa, ishonch telefonimizga (73-244-68-08) qo'ng'iroq qilishingiz mumkin. Murojaatingiz qisqa fursatlarda o'rganib chiqiladi va javob beriladi.

"Davlat soliq xizmati - insofli soliq to'lovchining ishonchli hamkori" tamoyili doirasida siz bilan hamkorlikka tayyormiz!

Farg'ona shaxar DSI boshlig'i Q.Bekmirzaev

2022-12-28 14:00:41